

# "Biz zo'rvonlikka qarshimiz" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi

// 06 December 2024 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/biz-zo-ravonlikka-qarshimiz-mavzusida-davra-suhbatini-tashkil>



BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 17-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyasi bilan "25-noyabr - Xalqaro ayollarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi 16 kunlik faol harakat" sifatida belgilangan.

Shunga ko'ra, yurtimizda 25-noyabrdan "Zo'rvonlikka qarshi 16 kunlik faol harakat" global kampaniyasi o'tkazilmoqda.



Kampaniya doirasida "O'zkiyosanoat" AJda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Biz zo'rvonlikka qarshimiz" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbirda Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi o'rinbosari Matluba Qahhorova hamda Ijtimoiy himoya Milliy agentligi huzuridagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi direktori Muqaddam Rasulova yurtimizda ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik va tazyiqlarga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida batafsil to'xtalib o'tishdi.



Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, onalar va bolalar huquqlarini muhofaza qilish yo'nalishida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun-mohiyati xususida so'z bordi.



Shuningdek, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, mamlakatimizda inson manfaatlarini ustunligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar zahirida jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquqlarini himoya qilish, ayollarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishidagi ishlar tahlil qilindi.



**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**